“O‘zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalari Komplayens xizmati tomonidan 2022-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti bo‘lib o‘tdi

https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/anticorruption/report/report20222

“O‘zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish, sohada priventiv choralarni kuchaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Hususan, Jamiyatning 2023-yil uchun “Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi” tasdiqlanib, sohada korrupsiyani oldini olish va bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar belgilab olindi.

Shuningdek, barcha tarmoq korxonalarida “Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosat”, “Odob-axloq qoidalari”, “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish Nizomi”, “Nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnoma”, “Kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnoma” va “Xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti” kabi 10 dan ortiq ichki idoraviy hujjatlar qabul qilinib, mazkur hujjatlardagi tartib-taomillar bilan xodimlarni tanishtirish va amaliyotga joriy etish yuzasidan ishlar amalga oshirilmoqda.

“O‘zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish Nizomi” talablariga muvofiq xizmat vazifasiga ko‘ra korrupsiyaviy xavf-xatarlar ehtimoli yuqori bo‘lgan 6250 nafar xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar to‘ldirildi. Tahlillar natijasiga ko‘ra **57 ta** mas’ul xodimlarda manfaatlar to‘qnashuvi holati mavjudligi, **37 ta** holatda esa ehtimoliy (potensial) manfaatlar to‘qnashuvi holati mavjudligi aniqlandi.

Bundan tashqari, Kimyo sanoati korxonalarida korxona va davlat mulklarini o‘zlashtirish va korrupsion jinoyatlar bo‘yicha jami **65 ta** xizmat tekshiruvlari o‘tkazilgan. Xizmat tekshiruvlari natijasiga ko‘ra to‘plangan hujjatlar tegishli tartibda huquqtartibot idoralariga yuborilib, oqibatida **28 nafar** xodim jinoiy javobgarlikka tortilgan, **25 nafar** xodim egallab turgan lavozimidan ozod etilgan, **100 nafar** mas’ul xodimlarga turli intizomiy jazolar qo‘llanildi.

2021-yil davomida tarmoq korxonalarining tovar-moddiy boyliklari hamda vakolatli ijara omborlarida jami bo‘lib **85,5 mlrd**. **so‘mlik** turli tovar-moddiy boyliklari va mineral o‘g‘itlar kamomadi aniqlangan bo‘lsa, ko‘rilgan chora-tadbirlar va o‘tkazilgan profilaktik tadbirlar natijasida joriy yilning hisobot davrida vakolatli ijara omborlarida kamomadlar aniqlanmadi.

2022-yilda “O‘zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalarida korrupsion harakatlar, korxona mablag‘larining talon-taroj qilinishi va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga qo‘shib yozishlar oqibatida tizimga jami **28,3 mlrd. so‘mlik** zarar yetkazilganligi aniqlanib, tergov xarakatlarini olib borayotgan idoralar bilan xamkorlikda yetkazilgan zararni qoplash yuzasidan tegishli choralar ko‘rilmoqda.

Shu bilan birga, hisobot davrida “O‘zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalarida qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlar “Xaridlar siyosati” va “Kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnoma” talablariga rioya etilishini

ta’minlash natijasida tizim korxonalarida xaridlar jarayonining ochiq va shaffofligini ta’minlash orqali jami **7,5 mlrd. so‘mlik** pul mablag‘larining asossiz sarflanishini oldi olindi.